

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

Rektor G. Rixsiyeva

2021 yil "21" 06

**MARKAZIY OSIYO XALQLARINING TABIIY-ILMIY,
IJTIMOIY-FALSAFIY MEROSI**

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi:

220 000 –Gumanitar fanlar

Mutaxassislik:

70220502 –Sharq falsafasi va madaniyati

TOSHKENT - 2021

Amg

2

Amg

19

Fan/modul kodi MOT1104	O'quv yili 2021-2022	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiiy, ijtimoiy-falsafiy merosi	60	60
	Jami yuklama (soat)		120
2.	I. Fanning mazmuni		
	Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojining asosiy davrlari va yo'nalishlari, muammolari, uning jahon falsafasi va sivilizatsiyasida tutgan o'rni bo'yicha nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish konikmasini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – Markaziy Osiyolik olim va mutafakkirlarning tabiiy-ilmiiy va ijtimoiy-falsafiy merosini tadqiq etishning dolzarb nazariy masalalarini, tarixiy merosimizning zamonaviy ilm-fan va sivilizatsiya taraqqiyotida tutgan o'rni hamda ahamiyatini ochib berish.		
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq falsafasi tarixiga yondashish metodologiyasi. Qadimgi Markaziy Osiyodagi ilk diniy-falsafiy qarashlar Markaziy Osiyoning uch ming yil davomida Sharq va G'arb sivilizatsiyasi va madaniyatini bog'lovchi chorraha bo'lib kelganligi. Madaniyatlararo muloqotda milodgacha bo'lgan II-asrdan – milodiy XV-asrga qadar Markaziy Osiyodan o'tgan qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va O'rta va Yaqin Sharq, O'rta Yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog'lab kelgan Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati. Turkiy, arabiy va forsiyazon xalqlarning tarixiy va madaniy aloqalari. Islom omili. Mintaqamizda ilm-fan, madaniyat va falsafiy fikr rivojlanishining asosiy davrlari. Asotir tasavvurlar va diniy-falsafiy qarashlarning paydo bo'lishi. Qadimgi falsafa bosqichi. O'rta asrlar falsafasi. Ma'rifatparlik falsafasi. Yangi va eng yangi davr falsafasi.		

Qadimgi Markaziy Osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarining kelib chiqishi. Zardo'shtiylik. Ko'k tangri ta'limoti. Ko'k turk bitiglarining g'oyaviy-falsafiy xususiyatlari. Markaziy Osiyoga buddaviylikning kirib kelishi va tarqalishi.

2-mavzu. VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va rivojlanishi. Qur'oni Karim va Muhammad (s.a.v.) hadislarini ta'limotining shakllanishi. Hadislarda bayon etilgan islomiy tarbiyaning asosi imon va solih amallardan iboratligi.

Imom al-Buxoriy (810-870)ning musulmon olamida shuhrat qozongan "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonarli to'plan") asari. Muhaddis asarlarida axloq-odobning asosini tashkil etuvchi ezgulik tushunchasi mohiyatining ochib berilishi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892)ning "Sunani Termiziy" asarida to'plangan hadislarining shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati.

Mu'taziliylar oqimi. An'anaviy va islom ilmlari taraqqiyoti. *Abu Mansur al-Moturidiy* (870-944)ning kalom ta'limoti.

Buxoniddin Marg'inoniy (1123-1197) – O'rta asrlar Sharqining buyuk huquqshunos olimi. Uning ellik yetti kitobdan iborat "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" asarining musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelayotganligi.

Movarounnahrlik olimlar tomonidan rivojlantirilgan islom ilmlarining muhim xususiyatlari.

3-mavzu. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy va tabiiy-ilmiy fikrlar rivoji. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning tabiiy ilmlar rivojiga qo'shgan hissasi

Abbosiyalar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-tarixiy muhit, tabiiy-ilmiy sohalarining rivojlanishiga sharoit berilishi. Sharq va Yunon falsafiy tafakkurining o'zaro ta'siri. Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati. "Sharq renessansi" tushunchasi, uning "G'arb renessansi" tushunchasi bilan nisbati.

Bog'dodda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi" - "Ma'mun akademiyasi")ning tashkil qilinishi va uning ilm-fan rivojidagi roli. Markaziy

7.	O'quv dasturi "Sharq falsafasi va madaniyati" kafedrasida ishlab chiqilgan va 20 <u>21</u> - yil "<u>21</u>" <u>08</u> dagi "<u>1</u>"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20 <u>21</u> - yil "<u>21</u>" <u>08</u> dagi "<u>1</u>"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: D.A.Pulatova – TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor M.Qodirov – TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.
9.	Taqrizchilar: G.M. Ro'zmatova – UzMU «Falsafa va mantiq» kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, professor; R.R. Karimov – UzMU «Falsafa va mantiq» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Osiyolik olimlarning "Ma'mun akademiyasi"ni tashkil etishdagi o'rni va ilmiy fan rivojidadagi roli. Mu'taziliy ta'limotining keng tarqalishi. Xorazmda "Majlis al-ulamo" ("Olimlar majlisi" – "Ma'mun akademiyasi")ning tashkil etilishi va tabiiy-ilmiy ilmlarning rivoji.

Muhammad Ibn Muso Xorazmiy (780-850), Ahmad Al-Farg'oniyy (vaf.861), Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vaf. 997) tabiiy-ilmiy merosining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

4-mavzu. Abu Nasr Forobiyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Abu Nasr Forobiy (873-950) Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda tugalgan ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta'limot yaratgan mutafakkir. Forobiyning ilmiy merosi. Forobiy «Ikkinchi muallim». Forobiy ontologik qarashlarining g'oyaviy ildizlari. Arastu ta'limotining yangicha talqini. Substansiya va aksidensiya, materiya va shakl munosabatlari. Fanlar tasnifi. Bilishda sezgi va tafakkurning roli. Mantiq ilmi va uning ilm-fan rivojidadagi o'rni. Forobiy – Musulmon Sharqida ijtimoiy falsafa asoschisi. Davlatning kelib chiqish sabablari haqida. Fozil jamoa va uning hukmronlik usuli haqida. Inson hayotining mazmuni va baxt-saodatga erishuv vositalari. Forobiyning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

5-mavzu. Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)ning hayoti va ilmiy merosi. Beruniy – o'rta asrning ensiklopedik olimi, fan tarixchisi. Abu Rayhon Beruniyning falsafiy dunyoqarashi. Beruniy ontologik qarashlarining dialektik mohiyati. Kosmologik va kosmogonik ta'limotida ilmiylik an'analari. Beruniy – tajribaviy metod asoschisi. Aqlning mohiyati va vazifasi. Ikki xil haqiqat masalasi.

Beruniyning ijtimoiy falsafasi. Inson jamoalarining kelib chiqish sabablari. Turli halqlar, tabaqalar va tillarning kelib chiqishi haqida. Jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning ahamiyati. Davlatning kelib chiqishi sabablari. Davlatni boshqarish shakllari. Jamiyat va davlat ravnaqini belgilovchi omillar. Beruniy axloqiy qarashlarining insonparvarlik mohiyati. Beruniy ijodida diniylik va dunyoviylikning uyg'unligi.

Beruniyning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

**6-mavzu. Abu Ali Ibn Simoning tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi
Ismoil Jurjoni va Mahmud Chagʻminiyning tabiiy-ilmiy
va falsafiy qarashlari**

Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning hayoti va ilmiy merosi. Tabiiy-ilmiy qarashlari va falsafiy dunyoqarashi. Ibn Sino ontologik ta'limotida neoplatonizm unsurlari. Ishrokiya (ilohiy nurlanish) falsafasi. Moddiy olam tuzilishi va rivoji haqidagi ta'limot va unda dialektika unsurlari. Borliqdagi sababiy bogʻlanishlar haqida. Ibn Sino gnoseologik qarashlari va uning metodologik ahamiyati. Sezgi va tafakkur va ularning oʻzaro munosabati. Tashqi va ichki sezgilar. Tajriba haqida. Maniq va uning bilishdagi oʻrni. Ilmlar tasnifi.

Ibn Simoning ijtimoiy falsafasi. Insonning mohiyati va uning jamiyatda tutgan oʻrni haqida. Alloma ijodida diniylik va dunyoviylikning uygʻunligi.

Ibn Simoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan oʻrni va ahamiyati.

Ismoil Jurjoni (vaf.taxm.1137) – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalarning ilmiy izlanishlari va anʼalarini davom ettirgan tabiiyshunos olim va tabib. Asarlari. Ontologik qarashlari.

Mahmud Chagʻminiy (vaf.taxm.1221) – Abu Rayhon Beruniy maktabining eng buyuk namoyandalaridan biri. Inson tabiatini tushunishda Ibn Simoning ilmiy anʼalarini davom ettirganligi.

**7-mavzu. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshgʻariy va
Mahmud az-Zamaxshariyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy
qarashlari**

Yusuf Xos Hojib (taxm. 1019-1021 y.tugʻ.) Oʻrta asr Sharqining yirik mutafakkiri. Uning mashhur “Qutadgʻu biligʻ” asarida axloq, bilim, maʼrifat, huloq-odob, taʼlim-tarbiyaning inson va jamiyat hayotida tutgan oʻrni masalalarining yoritilishi. Mukammal jamiyat haqidagi fikrlari.

Maxmud Qoshgʻariy XI asrda yashagan yirik mutafakkir. “Devonu lugʻatit turk” asarida lugʻatshunoslik, til tarixiga oid masalalar bilan birga, unda ijtimoiy falsafiy, axloqiy masalalar ham yoritilganligi.

Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1143) – buyuk mutafakkir. Tilshunoslik, lugʻatshunoslik, adabiyot, aruz, geografiya, tafsir, hadis, fiqh va ilm al-qiroatga oid ellikdan oʻid asalarning muallifi. Asarlarda inson aql-zakovatining, maʼnaviy-axloqiy goʻzalligining

10. Мирзиёев Ш.М. Нияти улўф халқининг иши ҳам улўф, ҳаёти ёруғ ва келажати фаровон бўлади. –Т.:Ўзбекистон, 2019.
11. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.press-service.uz/uz/lists/view/1371
12. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati makazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688
14. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uz.uz/oz/politics/president-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
16. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. – T.: O'zbekiston, 2014.
17. Abdurahimov B. «Bayt-al hikma» va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. –T.:Toshkent islom universiteti. 2004.
18. Баходиров Р.М. Из истории классификации наук на средневековом мусульманском Востоке. –Т.: Фан. 2000.
19. Копилов Н. Тасавуф. –Т.: TDSHL. 2006.
20. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar)// Mas'ul muharrir: M.M.Xayullayev. – T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999.
21. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHL, 2013.
22. Sodirov Q. Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari. – T.: TDSHL. 2004.
23. Falsafa. Ensiklopedik lug'at. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.

Axborot manbalari

24. www.lex.uz.
25. www.gov.uz.
26. www.libraty.ziyounet.uz.
27. www.faylasuf.uz.

	olamshumul ahamiyatini <i>bilishi</i>; - O'rta asr Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlanishini tahlil etish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar qilish; nazariy va amaliy bilimlarini uzviylik va uzluksizlikda <i>qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; - Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosining jahon ilm-fani va madaniyatining ajralmas qismi sifatida zamonaviy sivilizatsiya rivojiga qo'shgan hissasini ilmiy asoslab berish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish. Kurs ishini tayyorlash va himoya qilish.
6.	Asosiy adabiyotlar - O'zbekiston falsafasi tarixi. – T.: NOSHIR, 2013. - Qodirov M. "Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar)". – T.: TDSNI, 2010. - Majid Fakhry. A history of Islamic philosophy. –Columbia University Press, 2004. Qo'shimcha adabiyotlar - Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini - birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. - Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. - Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: 2017. - Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. - Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018.

ulug'lanishi. 8-mavzu. Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining tarqalishi O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining mohiyati, uning yirik namoyandalari va oqimlari. Ularda inson kamoloti masalasining qo'yilishi. Tasavvuf ta'limotining kelib chiqishi va Markaziy Osiyoda tarqalishi. <i>Abu Homid G'azzoliy</i> (1059-1111) tasavvuf nazariyotchisi sifatida. <i>Yusuf Hamadoni</i> (1048-1140) imon, e'tiqod, xalollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik to'g'risida. Yusuf Xamadoni tariqatining Markaziy Osiyoda tarqalishi. <i>Abdulxoliq G'ijduvoni</i>(taxm. 1103-1179) tasavvufiy qarashlarining "vahdati vujud" ta'limotiga asoslanganligi. Insonda ikki olam haqida. <i>Yassaviya tariqati. Hoja Ahmad Yassaviy</i> (1041- taxm. 1166) ning hayoti va ijodi. Yassaviyning «Devoni hikmat» asaridagi yuksak axloqiy poklik va insonparvarlik, nafsni tiyish, halol va pok bo'lish haqidagi g'oyalarning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni. <i>Qubraviya tariqati. Najmiddin Qubro</i> (1145-1221)ning zikri xufiyya usuli inson va koinotning uyg'unligiga erishish vositasi sifatida. Kubroviya ta'limotida komillikka erishishning asosiy qoidalari va uning ijtimoiy ahamiyati. <i>Jaloliddin Rumiy</i> (1212-1286) ning «Ichingdagi ichingdadir» asarida axloq go'zalligi, dunyoning o'tkinchi ekanligi, ilm qadri, sabr-qanoat haqidagi g'oyalari tahlili. «Masnaviy Ma'naviy» da surat va ma'no, kull va juz', asl va soya, taqlid va taxqiq masalalari. Rumiy ijodida komil inson tasviri. <i>Hojagon tariqati va Naqshbandiya. Bahovuddin Naqshband</i> (1318-1389) ta'limotidagi axloqiy g'oyalar. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining ijtimoiy ahamiyati.	9-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy falsafiy fikrlar rivoji Temuriylar hokimiyatining (1370-1506) o'rnatilishi. Ilm-fan rivojiga e'tibor. «Temur tuzuklari» – buyuk sarkarda harbiy yurishlarining solnomasi – ijtimoiy qarashlarining majmui sifatida. Amir Temur davlat va davlatni boshqarish, kengashib ish yuritishning afzalliklari to'g'risida. Ijtimoiy tabaqalar, ularga xos xususiyatlar. Davlat arboblari qo'yiladigan talablar. Qonun ustuvorligi masalasi. Insonparvarlik va adolat g'oyalari. <i>Sa'duddin Taftazoniy</i> (1322-1392)ning islom falsafasi, kalom, mantiq, handasa, she'rriyat, arab tili grammatikasi sohasidagi ilmiy izlanishlari va
--	---

asarlari. Tabiatdagi sabab-oqibat aloqadorligi, bilish nazariyasi, ong va uning belgisi nutq bilan bog'liqligi haqidagi falsafiy qarashlari.

Mir Said Sharif Jurjoni (1339-1413)ning falsafiy va mantiqiy qarashlari. *Mirzo Ulug'bek* (1394-1449) asarlari va ilmiy maktabi.

10-mavzu. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning falsafiy dunyog qarashi va ma'naviy merosi

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) adabiy merosi. «Haft avrang», «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandar» asarlari va g'azallaridagi ijtimoiy-falsafiy va axloqiy-didaktik masalalar. Jomiyning ideal jamiyat haqidagi ta'limoti. Odil shoh g'oyasi. So'fizm g'oyalarning Jomiy dunyog qarashiga ta'siri. Ijtimoiy-axloqiy qarashlari.

Alisher Navoiy (1441-1501)ning hayoti va ma'naviy merosi. Mutafakkir dunyog qarashiga sufiizm nazariy g'oyalarning ta'siri. Alisher Navoiy asarlarida yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, adolat va xaqiqat masalalarining yoritilishi. Inson va uning jamiyadagi o'rni masalasi. Navoiy ijodida insonparvarlik va bag'r kenglik g'oyalari. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

11-mavzu. Jaloliddin Davoniy va Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari

Jaloliddin Davoniy (1427-1502)ning hayoti va ilmiy merosi. Falsafa, mantiq, fiqh, axloqshunoslik, rivoziyot, geometriya sohalaridagi izlanishlari va risolalari. Davoniy amaliy falsafaning vazifasi va ahamiyati haqida. Inson tabiatining tahlili. «Axloq Jaloliy» asari, unda axloq mezonlarining ishlab chiqilishi. Ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganish, ta'lim-tarbiya olishning targ'ib qilganligi. Ideal jamiyat va odil podshoh haqidagi qarashlari.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505)ning asarlarida inson tabiatining tahlili. Jamiyat va jamiyat qonunlari, odil podshohlar haqida. Jamiyatni adolati boshqarishda davlat xizmatchilari (saroy a'yonlari) ning vazifalari va ularga xos xislatlar. Koshifiy dunyog qarashiga tasavvuf ilmining ta'siri. Koshifiyning axloq falsafasi. Koshifiy ijtimoiy-axloqiy qarashlaridagi insonparvarlik g'oyalari.

12-mavzu. Mirzo Bedilning falsafiy dunyog qarashi

Mirzo Bedil (1644-1721)ning hayoti va ijodi. Bedilning she'riyat yulduzlari – Sa'diy, Attor, Hofiz, Navoiylarning an'alarini davom ettirganligi. Jahon madaniyati xazinasidan chuqur joy olgan «Chor Unsuri» (To'r element),

20. Abu-l-Qosim az-Zamaxshariyning "Al Kashshof" asari mutaziliya ta'limoti va uning izdoshlari haqidagi ishonchli manba.
21. Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining asosiy tarixatlari.
22. Tasavvuf va uning Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikrda aks etishi.
23. XIV-XV asrda Markaziy Osiyodagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji.

24. Mirzo Ulug'bek va uning maktabi vakillarining tabiiy-ilmiy qarashlari.
25. Mirzo Bedilning falsafiy dunyog qarashi.
26. Abdurahmon Jomiy falsafiy dunyog qarashi va ma'naviy merosi.
27. Alisher Navoiyning falsafiy dunyog qarashi va ma'naviy merosi.
28. XIX-asr boshlarida Markaziy Osiyoda ma'rifatchilikning rivojlanishi.
29. XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jaddichilik harakatining ilm-fan va madaniyat rivojiga ta'siri.
30. Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida o'rni.

«Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi» fanidan kurs ishi muayyan mavzu bo'yicha umumiy yaxlitlikka ega ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ish hisoblanadi. Kurs ishi Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosining rivojlanishi darajasi va zamonaviy sivilizatsiyadagi o'rni ga doir masalalarni aks ettirishga mos kelishi talab etiladi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- muammoni bibliografik tahlil qilish;
- mualliflar hayoti va ijodi haqida imkon boricha mukammal ma'lumotlar keltirish;
- to'plangan materiallarni tahlil etish va tanqidiy o'rganish;
- fikrni ketma-ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilish;
- beriladigan taklif va tavsiyalarni asoslab berish;
- kurs ishini qo'yilgan talablar bo'yicha rasmiylashtirish.

3. VI. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari)

Magistrant bilishi kerak:

- Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafasi merosining zamonaviy ilm-fan va sivilizatsiya taraqqiyotida turgan o'rni va ahamiyati *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- o'rta asrlarda yuz bergan madaniy-ma'naviy yuksalishning o'ziga xos xususiyatlarini, Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojining asosiy bosqichlari va yo'nalishlarini hamda ularning

V. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Markaziy Osiyo xalqlari mahaviy merosini tadqiq etishning metodologik masalalari.
2. Markaziy Osiyoda diniy-falsafiy tafakkurning shakllanishi va asosiy xususiyatlari: zardo'shtiylik, buddaviylik, moniylik, mazdakiylik.
3. Qadimgi turkiy bitiklar falsafasi.
4. VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyoda Islom ilmlarining shakllanishi va rivojlanishi.
5. Markaziy osiyolik buyuk muhaddislarning ma'naviy merosini o'rganishning ijtimoiy ahamiyati.
6. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan ma'naviy yuksalishning tarixiy ijtimoiy-siyosiy, madaniy va g'oyaviy asoslari.
7. Markaziy Osiyoda Sharq arastuchiligining shakllanishi va rivojlanishi. Abu Yusuf al-Kindiyning falsafiy qarashlari.
8. Ar-Roziy Sharqda atomistik ta'limotning asoschisi.
9. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy merosi va uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni.
10. Al-Farg'oniyning tabiiy-ilmiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.
11. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar.
12. Abu Nasr Forobiyning ontologik qarashlari.
13. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarining ilm-fan va falsafiy fikr rivojidagi ahamiyati.
14. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari Sharq xalqlari madaniyatini o'rganish bo'yicha muhim manba.
15. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni.
16. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asari O'rta asrlarda ilm-fan rivojini o'rganish bo'yicha muhim manba sifatida.
17. Ismoil Jurjoni va Mahmud Chag'iniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.
18. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va undagi ijtimoiy-falsafiy, axloqiy g'oyalar.
19. Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ijtimoiy falsafiy, axloqiy masalarning yoritilishi.

«Irfon», «Nuqot» kabi asarlari. Panteistik ta'limoti Bedilning kalom va so'fizmg munosabati. Bedil ijodida inson va insoniylik masalasi. Bilish falsafasi. Jamiyat va davlat, axloq-odob haqidagi qarashlari.

13-mavzu. XIX-XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik va jadidchilik harakatining ilm-fan va madaniyat rivojiga ta'siri

Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq ozodlik harakatining kuchayishi. Milliy ongni uyg'otishga yo'naltirilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari va jadidchilik harakatining avj olishi.

Ahmad Donish(1827-1897), *Berdaq* (1827-1900), *Sattorxon Abdulg'afforov*(1843-1901)ning ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining xalqning milliy o'zligini shakllanishiga ta'siri.

Jadidchilar harakatining nazariyotchilaridan biri *Mahmudxoja Behbudiy* (1875-1919) tomonidan dunyoviy bilimlar va madaniyatni targ'ib qilinishi.

Munavvar Qori (1878-1931), *Abdulla Avloniy*(1878-1934)larning mamlakatni taraqqiy ettirish maqsadida olib borgan ishlari va ijtimoiy-siyosiy fikrlari. *Abdurauf Fitrat* (1884-1938)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. *Abdulhamid Cho'ipon* (1896-1937) ijodida ijtimoiy-siyosiy fikrlar, millatparvarlik g'oyalari. XX asrning 20-yillarida Jadid ziyolilari istibdod siyosatining qurboni bo'lganligi va ular ijodining bugungi kundagi ahamiyati.

14-mavzu. XX asrda O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji.

Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi o'rni

Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy merosini o'rganish. I.Mo'minovning ilmiy faoliyati. O'zbekistonda falsafiy tashkilotlarning ahamiyati. Ijtimoiy-falsafiy, ilmiy-metodologik masalalarning o'rganilishi. O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi bilan falsafiy tafakkurning va uning tarixini o'rganishga munosabatning o'zgarishi. Markaziy Osiyolik olimlar tomonidan qilingan kashfiyotlarning jahon ilm-fani rivojida tutgan o'rni.

Yangilanaayotgan O'zbekistonda falsafasi oldida turgan dolzarb masalalar, ularning jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma'naviy-ma'rifiy yuksalishiga ta'siri.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq falsafasi tarixiga yondashish

- metodologiyasi. Qadimgi Markaziy Osiyodagi ilk diniy-falsafiy qarashlar.
2. VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
 3. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy va tabiiy-ilmiy fikrlar rivoji. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farq'oniy, Abu Abdullloh al-Xorazmiyning tabiiy ilmlar rivojiga qo'shgan hisssasi.
 4. Abu Nasr Forobiyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.
 5. Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.
 6. Abu Ali Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi.
 7. Ismoil Jurjoniyy va Mahmud Chag'iminining tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.
 8. Yusuf Xos Hojib, Maxmud Qoshg'ariy va Mahmud az-Zamaxshariyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari.
 9. Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining tarqalishi.
 10. Amir Temur va temuriylar davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy falsafiy fikrlar rivoji.
 11. Mirzo Ulug'bek va uning ilmiy maktabi.
 12. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning falsafiy dunyogarasini va ma'naviy merosi.
 13. Jaloliddin Davoniy va Huseyn Voiz Koshfiyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari.
 14. Mirzo Bedilning falsafiy dunyogarasini.
 15. XIX-XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik va jadidchilik harakatining ilm-fan va madaniyat rivojiga ta'siri.
 16. XX asrda O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji. Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi o'rni.
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasining sivilizasion xususiyatlari.
2. Qadimgi Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning ma'naviy qadriyatlari aks etgan yozma yodgorliklar.

3. Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotining Markaziy Osiyoga yoyilishi.
 4. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'ot turk» asarida keltirilgan xalq og'zaki ijodi va afsonalari da milliy qadriyatlarining aks etganligi yoritish.
 5. Turkiy xalqlarning Kutlugin, Bilga xoqon, To'ryuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlaridagi diniy-falsafiy g'oyalar.
 6. Mutaziliya ta'limotining shakllanishi va falsafiy tafakkur rivojiga ta'siri.
 7. Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy ilmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit, madaniy-ma'naviy omillar.
 8. Markaziy Osiyoda kalom falsafasining rivojlanishi.
 9. Ikki yirik kalom maktablari bo'lgan Ash'ariya va Moturidiya ta'limotlarini qiyosiy tahlili.
 10. Islom ilmlari rivojlanishida movarounmahrlik olimlarning o'rni.
 11. Islom dunyosiga yunon falsafasining kirib kelishi.
 12. Islom dunyosida Arastu ta'limotining qayta tiklanishi.
 13. Bog'dodda "Bayt al-hikma" ("Donishmandlar uyi" - "Ma'mun akademiyasi") ning tashkil qilinishi va uning ilm-fan rivojidagi roli.
 14. Markaziy Osiyolik olimlarning Bag'dod "Ma'mun akademiyasi" dagi faoliyati va ilm-fan rivojidagi roli.
 15. Sharq Uyg'onish davri va uning xususiyatlari.
 16. Xorazmda "Majlis al-ulamo" ("Olimlar majlisi" - "Ma'mun akademiyasi") ning tashkil etilishi va tabiiy-ilmiy ilmlarning rivoji.
 17. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
 18. Ahmad Farq'oniyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
 19. Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlari.
 20. Abu Abdullloh al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
 21. Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
 22. Abu Ali Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy qarashlari.
 23. Nosir Xisravning tabiiy-ilmiy qarashlari.
 24. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyodagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji.
 25. Mirzo Ulug'bek va uning maktabi vakillarining tabiiy-ilmiy qarashlari.
 26. XVI-XVII asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr.
 27. XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr.
 28. XIX-XX asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr.
 29. Markaziy Osiyo xalqlari falsafasida shaxsning ma'naviy kamoloti masalasi.
 30. Markaziy Osiyo xalqlari falsafasida shaxsning ma'naviy kamoloti masalasi.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.